

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

6 ЖИЛД, 4 СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 6, НОМЕР 4

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

VOLUME 6, ISSUE 4



ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES
№4 (2023) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9556-2023-4>

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:
Сеитов Азамат Пулатович
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:
Сабилова Умида Фархадовна
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

22.00.01–Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Бекмурадов Мансур Бобомурадович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Каланов Комил Куллахматович
кандидат социологических наук, профессор (Узбекистан)
Убайдуллаева Раиса Турсуновна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Негматова Шахзода Шухратовна
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Исмаилов Алишер Агзамович
доктор экономических наук, (Узбекистан)

Щепилова Галина Германовна
доктор философских наук, профессор (Россия)
Рожанский Михаил Яковлевич
кандидат философских наук (Россия)
Маматов Нормурат
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Камалова Хатира Сабыровна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)
Тагиева Гулсум Гафуровна
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)

22.00.02–Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Умаров Абсалом Адилевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Холбеков Абдугани Жуманазарович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Шайхисламов Рафаэль Бадретдинович
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Акулич Мария Михайловна
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Каримов Бобир Шаропович
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Зайтов Элёр Холмаматович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)

Антонио Алонсо Марсос
доктор политических наук, профессор (Испания)
Фадеева Любовь Александровна
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Виктор Агаджаньян
доктор философии по социологическим наукам,
профессор (США)
Абдулазизов Абдулвохид Хабибуллович
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)
Мирзахмедов Хуршид Абдирашидович
доктор философии по социологическим наукам,
и.о. доцент (Узбекистан)
Қаюмов Қахрамон Нозимжонович
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)

22.00.03–Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Аликариев Нуритдин Сапаркариевич
доктор экономических наук, профессор (Узбекистан)
Матибаев Тасполат Балтабаевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Николов Стефан
доктор философии по социологическим наукам, (Болгария)
Пармонов Фарход Ярашевич
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Толипов Файзулла Саидович
кандидат исторических наук, доцент (Узбекистан)
Абдуллаев Сардорбек Усмонхужаевич
доктор философии по социологическим наукам, доцент
(Узбекистан)

Мирзахмедов Абдирашид Мамасидикович
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Ли Ци
доктор исторических наук, профессор (Китай)
Сухомлинова Марина Валерьяновна
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Бурнашев Рустам Ренатович
кандидат философских наук, профессор (Казахстан)
Махкамов Қодиржон Одилжонович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Алимухамедова Нодира Ядгаровна
доктор философии по философским наукам (Узбекистан)

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr. 1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

1. Узакова Зарина КУЛЬТУРА БЕЗОПАСНОСТИ В АТОМНОЙ ЭНЕРГЕТИКЕ: СОЦИАЛЬНО- ИНЖЕНЕРНЫЙ ПОДХОД.....	4
2. Ernazarov Behzod MUQADDAS QADRIYATLARNING O‘ZBEK IDENTIKLIGIDAGI AHAMIYATI.....	12
3. Nematova Dilfuza QADIMGI SHARQDA KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISH VA IJTIMOY XIMOYA MASALALARI.....	21
4. Kayumov Kaxramon ZAMONAVIY TARAQQIYOT SHAROITIDA KICHIK SHAHARLARNING IJTIMOY INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISH OMILLARI.....	28
5. Ibragimov Murodjon JAMIYAT TARAQQIYOTIDA YOSHLARNING KOMMUNIKATIV FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISHDA PR NING AHAMIYATI.....	36
6. Dulanboeva Oygul G‘ARB VA SHARQDA IJODKOR SOTSIAL QIYOFASI HAQIDAGI TASAVVURLAR EVOLYUTSIYASI.....	43
7. Turdikulov Shuxrat Xudoykulovich YANGI O‘ZBEKISTONDA KORRUPSIYAGA QARSHI KURASH SOHASIDA JAMOATCHILIK NAZORATI.....	51
8. Ziyayeva Xolida ZO‘RAVONLIKKA UCHRAGAN SHAXSLARNI REABILITATSIYA QILISHING SOTSIOLOGIK TAHLILI.....	58
9. Азизова Нодира СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ И ИНДИКАТОРЫ ИЗМЕРЕНИЯ СОЦИАЛЬНОГО И ЭКОНОМИЧЕСКОГО ПОЛОЖЕНИЯ СЕЛЬСКИХ ЖЕНЩИН.....	64
10. Nodira Alimukhammedova PROBLEMS OF NATIONAL IDENTITY.....	71
11. Vyatkina Yuliya, Burakanova Galiya, Axmedova Feruza QOZOG‘ISTON YOSHLARINING NAMOYISHKORONA ISTE‘MOLIGA TA‘SIR ETUVCHI ASOSIY OMILLAR.....	78
12. Убайдуллаева Р.Т. ИННОВАЦИОННОЕ РАЗВИТИЕ И СОВРЕМЕННЫЕ РИСКИ МОЛОДЕЖИ.....	86


ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

Ernazarov Behzod

O'zbekiston Milliy universiteti
Sotsiologiya kafedrası o'qituvchisi
ernazarov.b.nuu@mail.ru

MUQADDAS QADRIYATLARNING O'ZBEK IDENTIKLIGIDAGI AHAMIYATI

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.10473379>

ANNOTATSIYA

Diniy ramz va belgilarni tadqiq etishda biz zamonaviy sotsiologiyaning o'ziga xos usuli "vizual antropologik yondashuv"ni tanladik. Ijtimoiy voqelikning vizual tarkibiy qismlari, ya'ni oddiy ko'zki o'tkir nigoh yordamida qabul qilinuvchi va muqarrar ravishda moddiy asosga ega bo'lgan komponentlari ahamiyatli ravishda zamonaviy dunyoni anglashga ta'sir ko'rsatadi. Insonni o'rab turgan ijtimoiy-madaniy makonda badiiy ijod sarhadlaridan chiqib ketgan va kundalik hayotning ajralmas qismiga aylanib ulgurgan turli ko'rinishdagi vizual shakllar (fotosurat, rasmlar, reklama, kino, media namunalari, arxitektura, haykaltaroshlik) muhim o'rin tutadi.

Kalit so'zlar: Vizual-kognitiv, sotsial makon, sotsial zamon, fototasvir, bezak ramz, identiklik, primatlik, interaksiya.

Эрназаров Бехзод

Преподаватель кафедры социологии
Национальный Университет Узбекистана
ernazarov.b.nuu@mail.ru

ЗНАЧЕНИЕ САКРАЛЬНЫХ ЦЕННОСТЕЙ В УЗБЕКСКОЙ ИДЕНТИЧНОСТИ

АННОТАЦИЯ

При изучении религиозных символов мы выбрали "визуальный антропологический подход", специфический метод современной социологии. Визуальные компоненты социальной реальности, то есть те, которые воспринимаются с помощью обычного глаза или острого взгляда и неизбежно имеют материальную основу, существенно влияют на восприятие современного мира. Важное место в социокультурном пространстве, которое окружает человека, занимают визуальные формы различных проявлений (фотография, картинки, реклама, кино, образцы медиа, архитектура, скульптура), которые вышли за границы художественного творчества и стали неотъемлемой частью повседневной жизни.

Ключевые слова: визуально-когнитивный, социальное пространство и социальное время, фототасвир, декоративный символ, идентичность, примат, интеракция

Ernazarov Behzod

Lecturer at the Department of Sociology
National University of Uzbekistan

THE MEANING OF SACRED VALUES IN UZBEK IDENTITY

ABSTRACT

We chose the "visual anthropological approach" as a specific method of modern sociology in studying religious symbols. The visual components of social reality, that is, those that are perceived with the help of an ordinary eye or a sharp look and inevitably have a material basis, significantly affect the perception of the modern world. An important place in the socio-cultural space that surrounds a person is occupied by visual forms of various manifestations (photography, pictures, advertising, cinema, media samples, architecture, sculpture), which have gone beyond the boundaries of artistic creativity and have become an integral part of everyday life.

Keywords: visual-cognitive, social space and social time, phototasvir, decorative symbol, identity, primacy, interaction

KIRISH.

Maqolada keltirilgan vizual-kognitiv metod orqali muqaddas qadriyatlarni tahlil qilish, ijtimoiy madaniy bilim tushunchalarni mexanik tushuntirish nazariyasining asosiy g'oyalari va tushunchalarining qisqacha tavsifi, kognitiv sotsiologiyaning ikki an'anasiga ko'ra hodisalarni tahlil qilish uchun ijtimoiy va madaniy bilish tushunchalarni farqlash bilish lozim. Verbal va vizual, real va virtualning yangicha nisbati quriladi, individlarning vizual layoqati, vizual belgilarni "o'qish" ko'nikmasini shakllantirish zarurati vujudga keladi.

METODOLOGIYA.

Tadqiqotning metodologiyasi tarixiy qiyoslash, sintez, induksiya, deduksiya va vizual empirik metod asoslanib tadqiqot ishning nazariyasi ishlab chiqildi. O'zbekistonda muqaddas qadriyatlarning vizual-kognitiv metodologiya nuqtai nazardan, nazariy – amaliy o'rganilib chiqildi, muqaddas qadriyatlar xalq xarakteri va identikligiga ta'sirini epistemologik, tipologik tahlil qilindi.

ASOSIY QISM.

Sotsiologiya XX asr o'rtalaridayoq muhim ijtimoiy soha sifatida ijtimoiy-gumanitar fanlar ichida o'z o'rniga ega bo'lib ulgurgan edi. U tarixiy rivojlanish jarayonida ob'ektiv va sub'ektiv omillarni o'z ichiga olgan, yagona "sotsial organizm" deb e'tirof etiladigan jamiyat to'g'risida faqat dalillarga asoslanib xulosa chiqaradigan ijtimoiy sohaga aylanib bordi. Uning tadqiqot ob'ekti esa makro va mikrosotsiologik yondashuvlar orqali epistemologik bilimlar majmuasini yoritib berdi.

Ta'kidlanganidek, zamonaviy sotsiologik bilimlar tizimida makrosotsiologiya va mikrosotsiologiya tushunchalari alohida ahamiyat kasb etib, ular tadqiq etilayotgan muammolarning ko'lamini qamrab olishda turlicha mazmun kasb etadi. Jumladan, makrosotsiologiyaning tadqiqot ob'ektini yirik hajmdagi sotsial hodisalar: jamiyat, sotsial institutlar, jamoalar, tizim va jarayonlarda kechadigan munosabatlar tashkil etadi. Mikrosotsiologiya esa sotsial o'zaro aloqadorlik doirasidagi masalalar: xususan, alohida shaxslararo munosabatlar, kichik guruhlar o'rtasidagi kommunikatsiya jarayonlari, kundalik hayot voqeliklarini ifodalovchi sotsial makon kabilarni tadqiq qiladi.

Makrosotsiologik bilimlar darajasi sotsial muammolarni yoritishda kompleks (har tomonlama) umumiy nazariy yondashuvlarga asoslanadi va unda aniq mavzu hamda vaziyatlarga e'tibor qaratilmaydi. Keng ma'noda ilmiy tahlil uchun davlat, din, madaniyat institutlari, etnik jamoa va xalqlar, sotsial qatlam va sinflar, sotsial jarayonlarning taraqqiyoti, ilmiy revolyusiya va shu kabilar tanlab olinadi. Sotsial hodisalardagi har qanday jarayonlar makrodarajadagi qonuniyatlardan kelib chiqib shaxslararo muloqotlarni o'rganishga qaratiladi. Bunda jamiyat haqidagi bilimlarni yanada takomillashtirish uchun tahlil, sintez, umumlashtirish, qiyoslash, induksiya, deduksiya kabi umum ilmiy usullarga murojaat qilinadi. Makrosotsiologik darajadagi muammolarni yoritish asnosida keyinchalik, strukturali funksionalizm, konfliktlar nazariyasi, neoevolyusionizm kabi nazariy konsepsiyalar vujudga keldi.

Jamiyatdagi ijtimoiy jarayonlar o'rganilar ekan, tadqiqotchilar keyinchalik mikrosotsiologik darajaga keng e'tibor qarata boshladilar. Unga ko'ra jamiyat va sotsial jamoalarda alohida kishilarning xulq-atvorlari diqqat markazga ko'tariladi. Bunda birinchi navbatda kichik sotsial

guruhlar, oila, ma'lum bir jamoalardagi sotsial-ruhiy kayfiyat tadqiqot ob'ektiga aylana boshlaydi. Mikrosotsiologiya tarafdorlari har qanday darajadagi hodisalar kichik hajmdagi, ammo alohida ahamiyatga ega bo'lgan holatlardan yuzaga keladi, deb hisoblaydilar. Metodologiyasiga e'tibor qaratsa, mikrosotsiologiya faqat empirik tadqiqotlarning kam sonli ekspertlar bilan olib borilgan sifatli usullarga asoslanib xulosa bayon etganini kuzatish mumkin. Bu kuzatish usuli, chuqurlashtirilgan intervyu, ekspert baholash, eksperiment kabi tadqiqot usullari natijalariga tayaniladi. Bizning fikrimizcha zamonaviy sotsiologiyaning boshqa ijtimoiy fanlar bilan o'rtasidagi farq va masofa ham shunda namoyon bo'ladi. Mikrosotsiologiyaning taraqqiy etib borishi etnometodologiya, belgili interaksionizm, sotsial tarmoqlarning tahlili, fenomenologik sotsiologiya va sotsial almashuv kabi nazariy ta'limotlarni vujudga kelishiga olib keldi.

Bugungi kunda kishilar o'rtasidagi kommunikatsiyalarning o'zi tobora vizual tabiatga ega bo'lib bormoqda. Ijtimoiy tadqiqotchilar uchun mavjud vaziyatda voqelikning vizual jihatlarini e'tiborga olmaslik, muhim ijtimoiy muammolar va hodisalar fanning o'rganish doirasidan chetda qolishiga olib kelishi mumkin. Ushbu holatni anglash esa XXI asrning dastlabki yillarida ijtimoiy-gumanitar fanlar, xususan, sotsiologiya, madaniyatshunoslik, ijtimoiy antropologiya va falsafada "lingvistik burilish"ni keltirib chiqardi. Virtual makonda to'ldirilgan va boyitilgan, voqelikni zamonaviy tuzilmaga keltirishda vizual obrazlarning roli alohida ta'kidlanib, yodda qoladigan bo'ldi.

Vizual ma'lumot tashuvchilari orasida bugungi kunda fotosurat alohida o'rin egallab kelmoqda. Ko'p jihatdan aynan fototexnikaning rivojlanishi va fotosurat tasvirlarining ommaviy chop etilishi kundalik hayotning vizual obrazlar bilan tezkor sur'atlarda boyitib borilishiga olib keldi. Tadqiqotimiz ob'ektidan kelib chiqib aytadigan bo'lsak, vizual ma'lumotlar asosida muammoni, ya'ni muqaddas joy va ziyoratgohlarning sotsiologik xususiyatlarini ko'rsatib o'tamiz.

Fotosurat XIX asr o'rtalariga kelib paydo bo'ladi va "xotiraning alohida o'rni"ni namoyon etadi. Foto hodisalarning uzluksiz oqimi orasida biz yoddan chiquvchi lahzalarni o'ziga xos ravishda "to'xtatish" imkoniga ega bo'lamiz va zarur bo'lsa "abadiyat"ga saqlab qolish uchun urinib ham ko'ramiz. Fotolavhalarda biz mavjud bo'lgan yoki o'zimiz tomonimizdan qayta kashf etilgan ramz va belgilarni takomillashtiramiz. Fotosuratlarda voqelikni anglar ekanmiz, uni sotsiologik jihatdan o'tmish va bugungi kunning ijtimoiy-madaniy rivojlanishi, ijtimoiy-siyosiy kayfiyat, mafkuraviy-tarixiy jihatdan ildiz otib ulgurgan qaysidir ijtimoiy me'yorlarning ahamiyatli, kerakli tomonlarini hujjatlar sifatida rasmiylashtirishimiz mumkin.

Fotosuratlarning o'ziga xosligi shundan iboratki, unda madaniyatning mustaqil, o'z qiymatiga ega bo'lgan vizual matnlari bir vaqtning o'zida ijtimoiy voqelikning chegarasiga tushib qoluvchi ko'rinish va o'rganish vositasi hisoblanadi. Bundan tashqari, bugungi kunda qo'yilgan muammoni anglash predmeti ko'pincha fotosurat ma'lumotlarini hujjatlashtiruvchi vazifani emas, balki, uning u yoki bu hodisa sifatida fototasvirga tushirish agentlari nigohi va qarashlari asosida taqdim qilingan linza, ya'ni ko'rinishni ifodalamoqda. Ijtimoiy-madaniy kontekstdagi fotosuratlarning reprezentativ ma'nolarini qay tarzda shakllantirishini o'rganish dolzarb masalaga aylanmoqda.

Tadqiqotchilar vizual usullardan foydalanar ekanlar, uning ilmiy maqomini yuqori darajaga olib chiqishni zarur, deb hisoblaydilar. Xususan, rossiyalik sotsiologlar Ye.Rojdestvenskaya va V.Semenovalar vizuallikni "fundamental sotsiologiyada hali-hamon "marginal" maqom kasb etayotganligini" – ta'kidlaydilar [1]. Vaholanki, Yevropa va Amerika sotsiologiyasida vizual usullar allaqachon intellektual tahlilning ramziga aylanib bo'lganligi, zamonaviy tadqiqotlarda talqin qilish va reprezentativlikning ramziy belgisiga aylanganligini e'tirof qilish mumkin. Bugungi tadqiqotchi o'z mulohazalarini bemalol vizual tasvir, belgi va namunalarda aks ettirishi foydadan holi bo'lmaydi. Ijtimoiy interaksiya (*Ijtimoiy interaksiya – bu kishilar o'rtasidagi o'zaro faoliyat bo'lib, u mikro (oila, do'stlar davrasi, hamkasblar) va makro (ijtimoiy tuzilma va butun bir jamiyat a'zolari) darajada amalga oshiriladi, hamda ramziy belgilar, hayotiy tajriba va amaliy yutuqlarni nazarda tutadi.*) ning vositachiligi bilan media axborot va vizual olamga aylangan ma'lumotlar zamonaviy jamiyatning asosiy ramziy belgisiga aylanib bormoqda. Fototasvirlar sivilizatsiyalashib borayotgan har qanday jamiyatni bir zumda "portlatishi" mumkin. Ijtimoiy-madaniy tasavvurdagi olamning imkoniyatlarini tadqiq etish orqali sotsial va tarixiy xotirani vizual kuzatib borish muhim ma'lumotlarni qo'lga kiritish imkonini beradi.

Savol tug'iladi: Noprofessional tarzda olingan suratlar ahamiyati bo'yicha ilmiylik mazmun kasb etishi mumkinmi? Bu xususda taniqli fotosuratchi antropolog olim Djudi Vayzer shunday deydi: "Oddiy tasvirlar bizga odamlarning kundalik hayotidagi voqeliklarni ko'rsatar ekan, unda biz uchun "mavjud xotirani oynada namoyon qilgandek" tasavvur shakllanib boradi. Ta'kidlash joiz, tasvirlardagi emotsional-hissiy jihatlar kishilarda ko'z va nigoh bilan ko'rgandan ko'ra, ularning qalbi va aqlida qadrlil bir mazmun bilan chuqur iz qoldiradi"[2]. Vizual tasvirlar zamonaviy sotsiologiyada o'ziga xos tadqiqot usuli sifatida yangi metodologik imkoniyatlarni ko'rsatib bermoqda. Miqdorli tadqiqotlarda dasturchi son va raqamlarni u yoki bu tomonga o'zgartirishi, siljitishi mumkin. Sifatli tadqiqotlarda respondentning ovozi tarzda bergan hissiyot, kechinma va holatlarini qog'ozga tushirishning imkoniyati yo'q. Ammo vizual tasvirlarni butun bir ko'inishi bilan maqola va kitoblarga joylashtirish mumkin. Shu bilan birgalikda tasvirlar kishini o'ylash, qaror chiqarish va qaysidir bir yangilikni o'ylab topish, yaratish imkonini beradi.

Axborotlashgan jamiyat insonlar tafakkurida axborotni nafaqat nazorat qilish, balki uni boshqarish ko'nikmasiga ham o'rgatib bermoqda. Fototasvirlar olinar ekan, unda kattalar ham, bolalar ham endi inson siymosini imkon qadar kam gavdalantirishga harakat qilmoqdalar. To'satdan, ogohlantirishsiz olingan suratlar internet tarmoqlarida tarqalar ekan, u kishilar ruhiyati va sog'lig'iga juda katta salbiy ta'sir o'tkazishi mumkinligini odamlar anglab yetmoqdalar. Telefon apparatlarida har qanday hazil-mutoyiba tarzida olingan tasvirning istalgan vaqtda ijtimoiy tarmoqlarga chiqib ketish xavfi mavjud. Shu bois ijtimoiy makonda ichki madaniyat paydo bo'layotganligi va rivojlanayotganligini, uning sotsiumda mavjudligini sezmaslik mumkin emas. Sotsiologlar "sotsial makon" atamasini qo'llash orqali tevarak atrofimizni o'rab turgan borliqning holatini hech bir o'zgarishsiz o'z holatida qabul qilish va tadqiq etishni taklif etadilar[10; 67].

Vizual sotsiologiyaning institutsionallashuv jarayonlarini o'rganadigan bo'lsak, unga ilk marotaba XIX asrning oxiri va XX asrning boshlariga kelib murojaatlar boshlanadi. Xususan, 1896 yildan 1916 yilgacha "Amerika sotsiologiya jurnali" jiddiy ijtimoiy muammolar bilan bog'liq masalalar va tadqiqot ishlarini oq-qora va ayrim holatlarda rangli fototasvirlarda berib boradi. Umuman olganda fotosuratlar XIX asr o'rtalariga kelib paydo bo'ladi. Unda "xotiraning alohida o'rni"ga, hodisalarning uzluksiz oqimi orasida esdan chiquvchi lahzalarni o'ziga xos ravishda "to'xtatish" va saqlab qolishga o'ziga xos tarzda urinish sifatida shakllana boshladi[3]. Shu sababli fotosuratni sotsiologik jihatdan anglashda o'tmish va bugunning ijtimoiy-madaniy rivojlanishi, ijtimoiy-siyosiy kayfiyat, mafkuraviy jarayonlar, ijtimoiy me'yor kabilarning ma'lum ma'nodagi ahamiyatli jihatlarini aks ettiruvchi hujjat sifatida ta'riflash mumkin.

Fototasvirning o'ziga xosligi shundan iboratki, unda mavjud madaniyatning mustaqil va o'z qiymatiga ega bo'lgan hodisalarini vizual matn sifatida davr xotiralarini ko'rsatuvchi ijtimoiy voqelikning axborotlari vositasi, deb hisoblash mumkin. Aksariyat fanlar, jumladan, etnografiya, san'atshunoslik, antropologiya o'z tadqiqot predmetidan kelib chiqib, fototasvirlarni hujjatlashtirilgan matnga qiyoslaydilar. Sotsiologiyada vizuallik u yoki bu hodisani fototasvirga tushirgan odam (agent)larning o'z qarashlari asosida taqdim qilingan voqeliklarning ijtimoiy madaniy olami sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur kontekstda fotosuratlarining tahlil etilishi tarixiy va ijtimoiy xotira uyg'unligida reprezentativlikni ta'minlab beradi.

O'zgaruvchan dunyoda yashar ekanmiz, kishilik olamining qisqa fursatda bir ijtimoiy makondan ikkinchisiga katta tezlikda moslashayotganligini ko'rish mumkin. Fotosuratlar byurokratiyaning bir belgisiga aylanib bermoqda. Hisobotlar zerikarli qog'ozbozlikdan vizual holatga o'tib bermoqda. Darslik va o'quv qo'llanmalar, ilmiy monografiya va hatto maqolalar fototasvirlarda bayon qilinadigan bo'lindi. Antropologiya va etnografiyada biz uchun qaysidir ma'noda "noma'lum" bo'lgan ob'ekt yoki madaniyatlar vizual hujjatlarda asosan namoyishkorona taqdim etilsa, sotsiologiyada u biz uchun o'ziga xos, atrofimizda bemalol uchratish mumkin bo'lgan hodisa va munosabatlarni yoritib beradi[4; 17].

Sotsiologiya va ijtimoiy antropologiya fanlari so'nggi yillarda vizual tadqiqot usullariga keng e'tibor qaratmoqda. Ijtimoiy vaqt va makonda namoyon bo'lib, tasavvurlarda aks etgan xotiralarning tasvirga olinishi doimiy yoki vaqtinchalik ko'rgazmali vositalar miqdorining ko'payishiga olib keldi. Vizual sotsiologiya va antropologiyaning rivojlanishi ijtimoiy hamda etnomadaniy merosni

o'rganish, ularning bugungi kundagi transformatsiyalashuv jarayonlarini tadqiq etish bilan boyitiladi. Vizual tadqiqot usullari, bevosita, inson va uning ijtimoiy hayotga uyg'unlashib borish jarayonlarini yoritib berar ekan, unda davrlar almashinuvi, kundalik hayot, turmush tarzi, sog'inch, arxitektura va tabiat bilan qorishib ketish masalalari yoritiladi. Metodologik jihatdan tahlil uchun savol tug'iladi: fototasvirlarda nima ustuvorlik qilishi kerak? Vizual tasvirning konteksti nima bilan bog'liq? U "kim uchun"mi yoki "nima uchun"mi? Savollar ketma-ketligini davom ettirish mumkin. Lekin, bizning nazdimizda, u avvalambor idrok bilan bog'liq. Biz atrofimizni qamrab turgan turfa xil olamga e'tiborsiz nazar tashlasak, deyarli hech narsani ko'rmaymiz. Ammo, ushbu olamni maqsadli o'rganmoqchi bo'lsak, unda turli xil makon yashirilib yotgani, harakat qilayotgani, hayot uchun kurashayotganligiga guvoh bo'lamiz. Dunyoga ko'pincha to'g'ridan-to'g'ri emas, aksincha o'zgalalar ko'zi bilan qarasaq, tebranma harakatlarni kuzatamiz yoki vujudga keltiramiz. Ushbu tebranishlar ba'zida cheklovlar sodir etsa, ba'zida foydali xususiyatlarni keltirib chiqaradi. Tebranish chegaralari kengayib borar ekan, paydo bo'lgan muammolarni idrok etib boramiz. Idrok qilish uchun biz o'zimiz mansub (identifikatsiya) bo'lgan olamning turli qiyofalari, xususan insonlarning ham ko'rinishiga e'tibor qaratamiz[4; 39-100].

Sotsiologik tadqiqotlarda tasvir talqinni talab etadi. Fototasvirlarni talqin qilish huquqi kimga tegishli, degan savolga javob izlab ko'raylik. Umumiy holatda qarasaq, har qanday talqin ijodkor tomonidan amalga oshiriladi. Lekin vizual tadqiqotlarda talqin uchun atrofdegilar jalb etiladi. Vizual manbalar sifatida badiiy, hujjatli fotosuratlar, filmlar, afishalar va boshqalarni olish mumkin. Rasmlardan foydalanib, kimningdir fikrini tasvirlash va kontent tahlil etish mumkin. Sababi rasmlarda his-hayajon, ehtiroslar, quvonch, qayg'u, tashvishlar, simpatiya, antipatiya, go'zallik, tubanlik, xullas inson ruhiyati va kayfiyati bilan bog'liq barcha kechinmalar mavjudligi kuzatiladi.

Tadqiqotchi vizual manbalardan foydalanar ekan, o'zida xayoliy tasavvur orqali ijodiy fikrlashni rivojlantiradi. Bunda biz aynan irratsional tafakkurni his etamiz. Jamiyatdagi ijtimoiy jarayonlar o'rganilar ekan, tadqiqotchilar keyinchalik mikrosotsiologik darajaga keng e'tibor qarata boshladilar. Unga ko'ra jamiyat va sotsial jamoalarda alohida kishilarning xulq-atvorlari diqqat markazga ko'tariladi. Bunda birinchi navbatda kichik sotsial guruhlar, oila, ma'lum bir jamoalardagi sotsial-ruhiy kayfiyat tadqiqot ob'ektiga aylana boshlaydi. Mikrosotsiologiya tarafdorlari har qanday darajadagi hodisalar kichik hajmdagi, ammo alohida ahamiyatga ega bo'lgan holatlardan yuzaga keladi, deb hisoblaydilar. Metodologiyasiga e'tibor qaratisa, mikrosotsiologiya faqat empirik tadqiqotlarning kam sonli ekspertlar bilan olib borilgan sifatli usullarga asoslanib xulosa bayon etganini kuzatish mumkin. Bu kuzatish usuli, chuqurlashtirilgan intervyu, ekspert baholash, eksperiment kabi tadqiqot usullari natijalariga tayaniladi. Bizning fikrimizcha zamonaviy sotsiologiyaning boshqa ijtimoiy fanlar bilan o'rtasidagi farq va masofa ham shunda namoyon bo'ladi. Mikrosotsiologiyaning taraqqiy etib borishi etnometodologiya, belgili interaksionizm, sotsial tarmoqlarning tahlili, fenomenologik sotsiologiya va sotsial almashuv kabi nazariy ta'limotlarni vujudga kelishiga olib keldi.

Biz istiqomat qilayotgan ijtimoiy makonni tafakkur bilan idrok etish ikki tomonlama amalga oshirilib, bir tomondan u hissiy bilimlarga, ikkinchi tomondan esa aqlga asoslanib, sotsial tizimlashtirish mahsuli sifatida namoyon bo'ladi. "Ob'ektiv" tomondan u ijtimoiy tuzilgan, chunki agentlar yoki muassasalar bilan bog'liq xususiyatlar qandaydir mustaqil obraz orqali emas, balki aksincha, teng bo'lmagan ehtimoliy kombinatsiyadagi idrokda namoyon bo'ladi. (shuningdek, patli hayvonda qanotli bo'lish ehtimoli mo'ynali hayvondagiga nisbatan ko'proq bo'lganidek, yirik madaniy kapital egalarida ham muzeylarga borish ehtimoli ushbu kapitalga ega bo'lmaganlarga nisbatan katta). "Sub'ektiv" tomondan esa, idrok etish va baholash ko'rib chiqilayotgan vaqtga moslashtiriladi, hamda qo'yilgan barcha buyum, xususan tilda, oldingi kurash mahsuli hisoblanadi, ozmi, ko'pmi, ramziy kuchlarni taqsimlanish holatining o'zgartirilgan shaklida ifodalanadi"[5; 21]. Bunda ijtimoiy bo'shliqning o'rni beqiyos bo'ladi.

"Ijtimoiy bo'shliq – jismoniy bo'shliq emas. Ammo, u ozmi-ko'pmi to'laroq va aniq tizimlar tarkibida amalga oshishga intiladi. Bu esa bizga uni jismoniy sifatda anglab yetishimiz qanchalik qiyinligini bildiradi. Biz yashayotgan va biz idrok etayotgan bo'shliq, ijtimoiy qurilgan va belgilangan makon hisoblanadi. Ijtimoiy bo'shliq – bu ijtimoiy makonlar maydoni yoki bo'shliq osti

ansambli bilan qurilgan mavhum bo'shliqdir. Ijtimoiy bo'shliqni iqtisodiy maydon, intellektual maydon va inson kapitali to'ldiradi. Ular o'z tuzilishi bilan ijtimoiy kapitalning alohida turlarini qaysidir ma'noda teng bo'lmagan taqsimlanishiga majbur. U turli maydonlardagi kurashning vositasi va maqsadlari sifatida bir vaqtning o'zida ishlaydigan turli xil kapitallarni taqsimlash tizimi shaklida idrok etilishi mumkin"[5; 53-54].

"Ijtimoiy makon, yuqorida aytib o'tganimizdek, turli va muntazam ravishda o'zaro bog'liq xususiyatlar bilan ta'minlangan agentlar to'plamidir: shampan vinosini ichadiganlar viski ichadiganlarga qarshi qo'yiladi, lekin ular qizil sharob ichadiganlarga ham boshqacha tarzda qarshi qo'yiladi: ammo shampan vinosini ichadiganlarda viski ichuvchilarga qaraganda va qizil sharob ichuvchilarga nisbatan eski, qadimiy mo'jizakor san'at "jihaz"lariga ega bo'lish imkoniyati oshadi, ya'ni bunda golf bilan shug'ullanish, zotdor otga minib aylanish, teatrga borish uchun qizil sharob ichuvchilarga nisbatan cheksiz ko'proq imkoniyatlar bor, degani. Bunday xususiyatlar tegishli toifaga va idrokka ega bo'lgan, golf o'yini orqali o'zini an'anaviy yirik burjuaziyaning vakili sifatida "tasvirlash"ni oldindan belgilovchi agent (tashuvchi)lari deb idrok etiladi. Ijtimoiy hayot haqiqatining o'zida shu kabi belgilar ramziylik sifatida amalga oshadi"[5; 54]. "Iqtisodiy va madaniy kapitaldan tashqari, ba'zi bo'shliqlar, xususan "tanlangan"lari ham ijtimoiy kapital talab qiladilar. Ular o'zlarini odamlar va buyumlarning bir xil bo'shlig'i tubida barqaror uyushmadan kelib chiqadigan "klub ta'siri" ko'magida (chiroyli uylar va ajoyib qasrlar) ijtimoiy va ramziy kapitallar bilan ta'minlashlari mumkin. Xalqlarda shu kabi holatlar bir-biriga shu qadar o'xshashki, unda barcha uchun umumiy bo'lmagan qandaydir umumiylik boshqalardan ajratib turadi. Klub ta'siri noma'qul xususiyatlardan birini namoyon qiladigan yoki barcha istalgan xususiyatlarni namoyon qilmaydigan darajada ushbu odamlar huquqi yoki ularning "haqiqati" uchun istisno qiladigan darajada yuksak amal qiladi". "Men masalan, buyuklikka va yuksaklikka chorlaydigan sabablarni qo'llab-quvvatlash haqida o'ylayman (masalan, yodgorliklar, estrada kuylari, yoki tribunalar), yoki rangtasvir va haykaltaroshlik asarlarining qarama-qarshiligi, yanada aniqroq aytganda, bo'shliqdagi oddiy ijtimoiy malaka amallarini so'zsiz bajaradigan odob-axloqdagi reverans va hurmat belgilarining barcha ko'rinishlari (faxrli o'rin, birinchilikni olish va b.) va ierarxik bo'shliqning har qanday amaliy bosqichlari haqida (yuqori qismi/pastki qismi, oliyjanob qismi/sharmandali qismi, sahna oldi/sahna orti, old ko'rinish/orqa qism, chap tomon/o'ng tomon va b.)"[5; 54].

"Egallangan bo'shliq, bu – hukmronlik tasdiqlanadigan va shubhasiz o'zining eng ayyor shaklida – ramziy va sezilmaydigan zo'ravonlik sifatida amalga oshiriladigan joy. Unda so'zsiz ijro etiladigan buyruqlar bevosita tanaga qaratilgan bo'ladi. Uni xuddi saroy jamiyatining odob-axloq qoidalari kabi, reverans va hurmat kabi o'zlashtirgan me'moriy bo'shliq tashkil etadi. U uzoqlashishdan hosil bo'ladi, aniqrog'i ehtiromli masofaga o'zaro uzoqlashishdan vujudga keladi. Bu me'moriy bo'shliqlar, shubhasiz, ularning sezilmasligi tufayli hukmronlik ramzining muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi"[5;52].

Sotsiologiya xanuzgacha, bo'shliqni ko'pincha yo'q qilishga intiladigan fan sifatida to'liq namoyon bo'ladi. Monten ta'biri bilan aytganda, "oshxonada vujudga kelgan fikrlar", shubhali va yolg'on ko'rinishdagi, uning go'zalligidan dunyoni mahrum qiladigan, nafaqat yolg'onni, balki hayolparastlikni cheklaydigan, cheksiz fikr-fazilat bilan chulg'angan tund tarafkashligi bilan faqat o'zini o'zi istalgan amaliyot bilan fosh qiladigan darajada takomillashgan fandir. Faqat haqiqat uchun qiziqishlar haqida muhim masalalarni ilgari qo'yishga rozi bo'lish, fanning o'zini va ilmiy "ehtimom"ni xavf ostiga qoldirishga tayyorlash, sotsiologiyaning o'zini shubhaga ostiga qoldirish uchun xizmat qiluvchi qurolga aylantirishni mavjud haqiqat sifatida tushunib yetish mumkin. Va bularning barchasi – ilm-fan beradigan salbiy va noaniq erkinlikka nisbatan erkinlikka ega bo'lish umidini yo'qolishiga olib keladi"[5;146].

"Begona" madaniyat yoqasida uchrashadigan musofirlar, muhojirlar va qochqinlar; getto yoki kafelardagi to'planishlar, begona tillarni yarim qorong'ilikda to'plash yoki boshqaning tilini g'ayritabiiy o'zlashtirishda; ma'qullash, mehr, darajalar, fanlar, nutqlar belgilarining yig'ilib qolishi; o'tgan sana bilan yashagan boshqa olamlar haqidagi, iqtisodiy qoloqlik to'g'risidagi xotiralarni to'plash; uyg'onish marosimida o'tmishni to'plash; hozirgini yig'ish. Shuningdek diasporadagi odamlarni yig'ish: qullar, ko'chmanchilar va internirlanganlarni; ayblovchi statistikaning, o'qishdagi

o‘zlashtirishning, qonunlar, muhojir maqomining to‘planib qolishi – Jon Berger yettinchi shaxs deb atagan yolg‘iz personajning genealogiyalari”[6].

“Millatchilik nutqi mening muhim masalam emas. Qaysidir ma’noda ushbu atamaning aynan tarixiy aniqligi va tabiiy barqarorligiga zid ravishda, men g‘arbiy millat, haqida mahalliy madaniyat hayotining noaniq va hamma joyda mavjud shakli to‘g‘risida yozishga harakat qilaman. Bu mahalliylik avvalambor, tarixiylik bilan emas, vaqtinchalik bilan bog‘liq: hayotning ma’lum shakli “jamoa”ga nisbatan murakkabroq; “mamlakat”ga nisbatan ko‘proq ahamiyatli; hukmronlikka nisbatan bir xilligi kamroq; fuqaroga nisbatan kamroq markazlashgan; “sub’ekt”ga nisbatan ko‘proq jamoaviy; rivojlanishga nisbatan ko‘proq ruhiy; madaniy farqni artikullashda va aniqlashda gibridli – jins, irq yoki toifa, - bu nima bilan ijtimoiy qarama-qarshilikning qaysidir ierarxik va ikkilik tuzilishida ifodalanishi mumkin”.

“O‘tgan avlodlarning qonuniyligini madaniy avtonomiyani ta’minlash sifatida ko‘rib chiquvchi – tarixiylikning bevosita ko‘rinishidan mahrum bo‘lgan” millat zamonaviylik ramzi bo‘lishdan to‘xtaydi va madaniyatdagi “zamonaviy” etnografiya belgisiga aylanadi. Istiqboldagi bunday siljish millatning uzilib qolgan murojaatini tan olishidan kelib chiqadi, u keskinlikda ifodalangan, ya’ni xalq aprior tarixiy qatnashchi, pedagogik ob’ekt sifatida, - va xalq, hikoya ijrosida, uning milliylik ramzining to‘lqini va takrorlanishida namoyon bo‘lgan, uning talaffuzli “haqiqiylikda” shakllangan”[6; 69].

“Turli etnik guruhlarning o‘zaro munosabatlarini aniqlash uchun L.Gumilev shuningdek “bir-birini to‘ldirish” tushunchasini taklif etadi”[7; 33]. Turli etnik guruhlarning bir geografik yoki sotsial makonda bir joyda bir madaniyat mavjudligidir. Shunday qilib, multikulturalizmni zamonaviy jamiyatda milliy madaniyatlar transformatsiyasining nazariy-metodologik asosi sifatida qarash mumkin. XX asr oxiri XXI asr boshida jahon hamjamiyati globallashtirilgan zamonaviy sivilizatsiya sifatida tavsiflanmoqda [13; 18]. Turli madaniyatning bir sotsio makonda mavjudligi integratsiyalashgan madaniy vaziyat so‘ngra yillar mobaynida soxta muqaddaslik yoki aksi bo‘lgan vaziyat vujudga kelishi mumkin.

Tarix bizga bir necha marta ba’zi xalqlar ijodiy g‘oyalar bilan birga original narsalarni yaratib faol aloqa qilishgani, boshqalari esa – unday qilmaganini ko‘rsatib berdi, umuman olganda “madaniyatlar o‘rtasidagi aloqalar ularning bir-biriga o‘xshashligi tamoyilida qayta tiklandi”.

Kirib kelgan va mahalliy madaniyat g‘oyalarining o‘zaro faol aloqalari bilan bog‘liq chuqurroq ta’sir darajasi ham mavjud edi. Yu.Lotman birinchilardan bo‘lib o‘zaro madaniy aloqalar jarayoni munosabatida “ta’sir” atamasiga nisbatan “muloqot” atamasini qo‘llash maqsadga muvofiq, degan fikrni bildirdi:” keng doiradagi tarixiy istiqbolda madaniyatlarining o‘zaro aloqasi doimo muloqotlilikda”[7; 33].

L.Gumilev zamonaviy etnologiyada faol ishlatiladigan, bitta hududda ikki yoki undan ortiq etnos guruhlarning yaqin hayot kechirishlarini ifodalaydigan “madaniyatlar simbiozi” tushunchasini taklif etadi. Fikrimizcha, kirib kelgan va mahalliy madaniyatlar, ularda ifodalangan badiiy g‘oyalar o‘zaro aloqada bo‘lsa va yangi original shakllarni vujudga keltirib muloqotga kirishsa, madaniy simbioz to‘g‘risida gapirish haqli [8; 90]. “Madaniy muloqot nafaqat rasmiy, balki mazmunli darajada ham o‘zini namoyon qildi. Sharq mamlakatlari san’ati tarixi – bu, birinchi navbatda diniy g‘oyalarining rivojlanish tarixi; san’at va madaniyat bir-biri bilan uzviy bog‘langan. Natijada, san’atda mahalliy va kirib kelgan xususiyatlarni birlashtirgan sinkretik shakllarning vujudga kelishi turli diniy an’analarning o‘zaro ta’siri bilan asoslanadi. Boshqa madaniyat diniy g‘oyalarini idrok etish, ularning mahalliy madaniyat ko‘rinishi bilan umumlashgani sababli ro‘y bergan”[8; 53]. Mo‘g‘ul bosqinchiligi davrida islom va u bilan bog‘liq anikonik san’at ma’lum darajada zaiflashdi. Movarounnahr iqtisodini odatdagi rivojlanish yo‘lidan bir necha o‘n yillarga izdan chiqqan mo‘g‘ullarning bostirib kelishi jamiyatdagi diniy hukmronlikni zaiflashtirdi, uning hayotiga etnik va madaniy bag‘rikenglikni olib kirdi, boshqa madaniyatlar uchun eshiklarni ochib berdi, birinchi navbatda xitoy madaniyatiga. Mahalliy madaniyatning taraqqiyot yo‘nalishi o‘z yo‘nalishini oldingi ochiqlikka, muloqotga intilishga o‘zgartiradi, unda X-XII asrlarda so‘fizm bilan bashorat qilingan insonparvarlik, zodagonlar g‘oyalari ko‘proq yorqin aks eta boshlaydi. Ular Amir Temur va

Temuriylar davrida gullab-yashnadi, bu davr O‘rta Osiyo taraqqiyoti tarixidagi yorqin davrlardan biri edi, u Movarounnahr ijtimoiy va madaniy hayotidagi yuksalish bilan bog‘liq”[8; 111].

Islomning o‘rnatilgan estetik toifalari va san‘atning mahalliy an‘analari simbiozi yangi turdagi san‘atning shakllanishida boshlang‘ich nuqta bo‘ldi. Sh.Shukurov o‘zining 1990-yillarning boshida islom madaniyatini qayta tiklash borasidagi haqiqiy yutuq bo‘lgan “Islom madaniyati nima?” deb nomlangan polemik maqolasida shunday yozadi: “Dinning estetik o‘rni payg‘ambar so‘zlari bilan ifodalangan: “O‘lloh go‘zal va U go‘zallikni yaxshi ko‘radi”, bundan kelib chiqadiki, u yaratgan dunyo ham, inson tomonidan qayta yaratilgan poetik, me‘moriy va tasviriy shakllar olami madaniyati ham go‘zal bo‘lishi kerak”[9]. Ma‘lum bir voqealar va aniq buyumlarni yetkazib berish emas, balki tabiatdan olingan va go‘zallik g‘oyasiga bo‘ysunuvchi obrazlarni gavdalantirish – musulmon rassomlari ijodida eng muhimi hisoblanadi.

XULOSA.

Demak, islom madaniyati taraqqiyotining birinchi bosqichidayoq, aynan uni ma‘qullash va saqlashga javob beradigan san‘at turlari – xattotlik va bezak rivojlandi. O‘z ta‘sirining kuchayishi bilan islom badiiy ifodalashning o‘z estetikasiga xos bo‘lmagan vosita va shakllarini rad etadi, unga endi madaniyat chegarasidan chiqib ketgan shakllarning keragi bo‘lmaydi, natijada tasviriylikni rad etish kelib chiqadi. Naqshning umumiy hukmronlik davri keladi, geometrik va o‘simliksimon, u uslubiy va obrazlilik jihatdan san‘atga hissa qo‘shgan Arabchaga – xattotlikka yaqin edi. Gap odamni va boshqa mavjudotlarni tasvirlashga bo‘lgan taqiqlarda emas, balki islom san‘atining boshqa vazifalarida – asosan ideal go‘zallik, mavhum Xudo va u tomonidan yetarlicha shakllarda yaratilgan dunyo haqidagi o‘z tasavvurlarini ifodalashda. Turli xalqlar ijodini yagona tizimga birlashtiruvchi san‘atning yangi turini yaratish islom dini uchun hayotiy zaruratga aylandi. Va u topildi – san‘atning barcha turlarini qamrab olgan bezak. Bezak ilohiy yaratish go‘zalligini ifodalashdan biriga aylanadi, haqiqatni ezoterik idrok etishda o‘ziga xos hidoyatga aylanadi va musulmon san‘atida misli ko‘rilmagan taraqqiyotga erishdi. Agar islomning klassik san‘ati haqida gapirilsa, bu “musulmon renessansi” davridir (XI – XIII aa.boshi),bu davrda avtoxona an‘analaridan qo‘llab-quvvatlash sifatida foydalanishgan, yangi badiiy ta‘limot (xattotlik, o‘simlik va geometrik shakldagi naqsh) tobora ustuvorlikka ega bo‘ladi.

Adabiyotlar/ Литература/ References:

1. Рождественская Е.Ю., Семенова В.В. Письмо редакторов // Интер. 2007. № 4.
2. Weiser J. Photo Therapy Techniques – Exploring the Secrets of Personal Snapshots and Family Albums, 2nd Edition. Vancouver: Photo Therapy Centre Press, 1999, available at <http://www.phototherapy centre.com/bookwid.htm>
3. Брекнер Р. Изображенное тело. Методика анализа фотографии // Интер. 2007. № 4.
4. Барт Р. Фотографическое сообщение // Система моды: Статьи по семиотике культуры. Изд-во им. Сабашниковых, 2003. – С. 17.
5. Бурдые П. Социология социального пространства. – М.: «Институт экспериментальной социологии», СПб.: «Алетейя», 2007. – С. 21.
6. Хоми Баба. Диссеминация: время, повествование и края современной natsii / Перевод (с незначительными сокращениями) выполнен по изданию: Nation and Narration / Ed. Н.К.Bhabha. London; New York: Routledge, 1990. – P. 291-322 (С.67).
7. Гумилев Л.Н. Тысячелетие вокруг Каспия. – Баку, 1991. – С. 33.
8. Гюль Э. Диалог культур в искусстве Узбекистана. Античность и средневековье. – Ташкент, 2005. – С. 90-101.
9. Шукуров Ш. Что такое культура ислама. // Литературная газета. 1991. № 22.
10. Каланов К., Келдиёров У. “Оғзаки тарих” усули ва унинг микросоциологияда тутган ўрни //Журнал социальных исследований. – 2022. – т. 5. – №. 1.
11. Zharmakhanov Z., Marcos A. A. New EU strategy for Central Asia: barriers for its successful implementation //Вестник КазНУ. Серия международные отношения и международное право. – 2022. – Т. 98. – №. 2. – С. 70-77.

12. Zhukov V., Smirnova A. Morphology images of visual-cognitive character of dynamical system information //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2021. – Т. 244. – С. 05030.
13. Хайдаров А. Х. Мультикультурализм замонавий жамиятда миллий маданиятлар трансформациясининг назарий-методологик асоси сифатида //Журнал социальных исследований. – 2022. – Т. 5. – №. 2.

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

6 ЖИЛД, 4 СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 6, НОМЕР 4

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

VOLUME 6, ISSUE 4

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000